



## O'ZBEKISTONNING JANUBIY MINTAQASI YETISHTIRILAYOTGAN ANOR NAVLARI

O.M.Abduvohidova

Meva-sabzavotchilik, uzumchilik, issiqxona xo'jaligi kafedrası talabasi,  
Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish inistituti

<https://www.doi.org/10.37547/ejar-v03-i03-p1-19>

### ARTICLE INFO

Received: 24<sup>th</sup> February 2023

Accepted: 05<sup>th</sup> March 2023

Online: 06<sup>th</sup> March 2023

### KEY WORDS

Nav, qandolatchilik, tibbiyotda, teri oshlashda, Gulbargi, bo'yoq, sharbat, kislota, olishda, o'simlik.

### ABSTRACT

*Anor xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlari qandolatchilik, tibbiyotda, teri oshlashda, gazlamalar bo'yashda foydalaniladi, Gulbargi va meva po'stidan bo'yoq, donidan sharbat tayyorlanadi, shu bilan bir qatorda yovvoyi turlaridan limon kislota olishda, bazi turlari xushmanzara o'simlik sifatida ham foydalaniladi.*

Dunyoning tropik va subtropik mintaqalarida yetishtirilayotgan mevalardan biri bu anor bo'lib, *Punica granatum L.* anordoshlar anorgullilar oilasiga mansub, subtropik meva o'simligi hisoblanib, bo'yi 2-10 metr daraxt yoki buta.

Anor xalq tabobatida dorivor vositasida sifatida keng qo'llaniladigan mevasing tarkibida 8-21% shakar, 0.5-5% kislotalar va vitaminlar, pishgan mevasi tarkibida 14-19% qand, 1.2-2.6% kislotalar, sharbatida esa shifobaxsh temir va tannin moddasi mavjud.

Anor xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlari qandolatchilik, tibbiyotda, teri oshlashda, gazlamalar bo'yashda foydalaniladi, Gulbargi va meva po'stidan bo'yoq, donidan sharbat tayyorlanadi, shu bilan bir qatorda yovvoyi turlaridan limon kislota olishda, bazi turlari xushmanzara o'simlik sifatida ham foydalaniladi. U asosan O'zbekistonga Avg'oniston orqali kirib kelgan hisoblanadi.

**Anor:** O'zbekistonning janubiy hududidagi Sherabot, Denov va Sariosiyo tumanlarida o'stirilib kelinmoqda. Ulardan qizil anor, qozoqi anor, oq dona, achchiq dona va ulfi navlar bo'lib, ular bir-biridan o'sish, rivojlanish, hosil berish muddatlari bilan farqlanadi.

**O'zbekistonda anorning quyidagi serhosil va qimmatli navlari tarqalgan:**



**Qizil anor** – bu nav xalq seleksiyasi tomidan etishtirilgan mahalli nav bo'lib, nordon-shirin anor navlariga kiradi. Shox-shabbasi keng yoyiq shoxlab o'sadi. Mevasi to'q qizil yoki qizil bo'ladi. Kattaligi o'rtacha bo'ladi. Doni to'q qizil, yirik, po'sti yupqa, undan 50-55% sharbat chiqadi. Mevasi yaxshi, nordon-shirin bo'lib, har tupidan 30-35 kg hosil beradi. O'zbekistonning janubiy viloyatlarida ko'p tarqalgan. Bu anor navi tuplari unumdor erlarda yaxshi o'sib mo'l hosil beradi. Olib borilgan tajriba natijalariga ko'ra Qizil anor daraxtining gullay boshlash davri 5- aprelga, tugash vaqti 9-aprelga, mevalarining pishib yetila boshlash vaqti 17-sentyabrga, biologik pishish vaqti esa 2- oktyabrga to'g'ri keladi.

**Qozoqi anor** – xalq tomonidan etishirilgan. O'rta Osiyoda eng yaxshi hisoblangan nordon-shirin nav. Har xil turdagi tuproqlarda yaxshi o'sadi va mo'l hosil beradi. Er osti suvi er yuzasiga yaqin bo'lgan erlarda ham yaxshi o'sadi, ammo sho'r yerlarda hosili yomon bo'ladi. Tajriba natijalariga ko'ra Qozoqi anor daraxtining gullay boshlash vaqti 4-aprelga, tugash vaqti 10-aprelga, mevalarining pishib yetila boshlash vaqti 21-sentyabr, biologik pishish 4-oktyabrni tashkil etadi. Mevasi o'rtachadan yirikroq (300 – 400 g), kumushrang sariq.



Sharbati to'q qizil, mazasi nordonshirin. Mevasidan 40 - 45 % sharbat chiqadi. Tajriba natijalariga ko'ra Qozoqi anor kurtaklarining g'unchalay boshlashi 21-martga Sovuqqa chidamsiz 14-15°S daraja sovuqda anor tupining ustki qismi zararlanadi. Saqlash va tashish uchun mevasi chidamli. Maxsus binolarda mevasini 6-8 oygacha saqlash mumkin;

**Oq dona** – O'zbekistonning

barcha viloyatlar ekish uchun mo'ljallangan. mevasi yassi yumaloq, yirik, o'rtacha vazni 300 – 350 g keladi, Doni yirik, po'sti yupqa, qattiq, pishganda mevasining rangi och sariq yoki qizil bo'ladi. Sharbati och pushti, xushbo'y, shirin, tarkibida 14% gacha shakar va 0,5% gacha kislota bor. Tajriba natijalariga ko'ra Oq dona anor daraxtining gullash davri boshlanishi 6-aprel,



tugash vaqti 8- aprelni, mevalarining pishib yetila boshlash vaqti 23-sentyabr, biologik pishish vaqti esa 6-oktyabrni tshkil etadi.Oq dona anor mevasi 2 oygacha saqlanadi.

**Achchiq dona** – Toshkent va Surxondaryo viloyatlarining ayrim rayonlarida standartga kiritilgan. serhosil, meva katta va sharsimon shaklda bo'lib, pushti oltin teriga ega. Urug'lari katta va uzun, yirik, vazni 300-400 gr, qobig'i qalin bo'ladi. Pishgan mevalari bir tekis qizil rangli, mevasi nordon-shirin bo'ladi. Doni va sharbati qizil. Sharbati tarkibida 15% shakar, 2,5 kislota bor. Tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki Achchiq dona anor gullash vaqti boshlanishi 11-aprel, tugash vaqti 14-aprel, mevasining pishib yetila boshlash vaqti 20-sentyabr, texnik biologik pishish vaqti 7-oktayabrni tashkil etadi, mevasini 2-3 oy saqlash mumkin;



**Ulf** – Kitob rayonida ekiladiganeng asosiy nav. Boshqa joylarda kam uchraydi. Har tupidan o'rtacha hisobda 20 – 25 kg gacha hosil olinadi. Mevasi yumaloq, yirik, o'rtacha vazni 250 – 300 g, qobig'i o'rtacha qalin. Rangi sariq, nursiz malina rangda. Doni o'rtacha yirik, sharbati och pushti, shirin, bir oz nordon, tarkibida 14 – 15% qand, 0,5 – 0,6% kislota bor. Tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki Ulf anor navi gullash davrining boshlanishi 9-aprel, tugash vaqti 13-aprelni, mevalarining pishib yetila boshlash vaqti 26-sentyabrni, biologik vaqti esa 13-oktiyabrni tashkil

etadi. Tashishga chidamli, o'rtacha 3 – 4 oy saqlanadi.

### References:

1. Axmedov A.U., Namozov X.K., Xolboev B.E., Toshpulatov S.I., Koraxanov A.X. Problemy zasoleniya i melioratsii zemel Uzbekistana (Na primere Golodnoy stepi) // Jurnal «Pochvovedenie i agroximiya». – Kazaxstan, 2017. – №2– S. 53-61.
2. Doroxova Ye.A., Axmedov Sh.M., Djalilov N.L. Karaxodjaeva G.M. Surxondaryo viloyatining issiq va quruq iqlimiga moslashgan anorning mahalliy navlari xilma-xilligi. Toshkent, 2018.
3. Mirzaev M.M., Borozdin.R.G Djavakyans.Yu.M va boshq. «Pomologiya Uzbekistana» Tashkent 1983 190 b.
4. Bo'riev X.Ch va boshqalar. Mevali va rezavor - mevali o'simliklar bilan tajribalar o'tkazishda xisoblar va fenologik kuzatuvlar metodikasi (uslubiy qo'llanma).-Toshkent.-2014.

### Internet saytlar:

1. <http://ziyo.edu.uz/rus/showinfo> Elektronnaya versiya knigi Oвощеводства, бaxчеводство, plodovodstvo i vinogradarstvo Uzbekistana.
2. <http://www.bfpais.ru> Plodovodstvo i vinogradarstvo



3. [www.lnau.lg.ua/scien\\_r9.htm](http://www.lnau.lg.ua/scien_r9.htm) Plodovodstvo i sadovodstvo. Issledovaniya otnosyatsya k viloyati plodovodstva i sadovodstvu